

GIRGENSOHNIA DIPTERA BUNGE O'SIMLIGI VA UNING KIMYOVIY TARKIBI

¹Akramova Zuhraxon Murodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

qodirovazuhraxon50@gmail.com +998937348498

ORCID ID:0009-0008-4218-3462

²Ismoilov Muminjon Yusupovich

Farg'ona davlat universiteti, kimyo fanlari doktori, professor

mismoilov1971@gmail.com +998912833020

ORCID ID: 0000-0001-8212-4493

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14843690>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda *Girgensohnia diptera* Bunge o'simligining biologik tafsifi va kimyoviy tarkibi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: *Girgensohnia diptera* Bunge, o'simlik, girgensonin alkaloid.

Аннотация. В данной научной работе представлена информация о биологическом описании и химическом составе растения *Girgensohnia diptera* Bunge.

Ключевые слова: *Girgensohnia diptera* Bunge, растение, алкалоид гиргенсонин.

Annotatsion. This scientific paper provides information about the biological description and chemical composition of *Girgensohnia diptera* Bunge.

Keywords: *Girgensohnia diptera* Bunge, plant, girgensonin alkaloid.


Girgensohnia diptera Bunge (Chenopodiaceae) oilasi, *Girgensohnia* jinsiga mansub bo'lgan bir yillik kichik buta hisoblanadi. Poyasi ingichka, shoxlangan, ko'pincha qizarib ketgan po'stlog'i oq rangga ega, balandligi 10-60 sm. Qarama-qarshi joylashgan qattiq barglar poyaning pastki yarmida ignasimon, yuqori qismida ular keng tuxumsimon, deyarli bosilgan erkin varaqlardan iborat. Barglar kutikula bilan qoplangan. Barglari va poyasi qurg'oqchilikka yuqori darajada moslashgan bo'lib, suvni tejash va bug'lanishni kamaytirish uchun maxsus tuzilishga ega. Bunday tuzilish o'simlikning suvni samarali saqlashiga, haddan tashqari bug'lanishning oldini olishga va ekstremal cho'l sharoitlarida ham yashashiga yordam beradi. Gullari asosan siyrak joylashgan boshhoqsimon, qarama qarshi to'pgullarga yeg'ilgan. Gullari ikki jinsli, besh azoli tuzilishga ega. Ularning gul qo'rg'oni beshta bo'lakdan iborat. Har bir gul 2ta shoxchali bo'lib. Bu tuzilma changlanish jarayonini samarali kechishiga yordam beradi. Mevalari zaytun-jigarrang silliq. Urug'lari oval yoki cho'zinchoq oval, uzunligi 1-2 mm. Iyun-avgust oylarida gullab meva beradi. Ildiz tizimi yaxshi rivojlangan bo'lib, asosan chuqur kirib boruvchi asosiy ildiz va yon ildizlardan ibora [1-2] (1-rasmga qarang).



1-rasm. *Girgensohnia diptera* Bunge o'simligi

Tarqalishi. Girgensohnia diptera Bunge o'simligi shimoliy Afg'onistondan G'arbiy Tojikiston Janubiy Qozog'istonda o'sadi. Qurg'oqchil hududlarda o'sishga moslashgan. Gilli, sho'r, shag'al va shag'alli tuproqlarda, ko'pincha tekislik va tog' etaklarida o'sadi [3]

Osimlikning 1.25 %ini alkaloidlar tashkil etadi. N-metil piperidin $C_6H_{13}N$, N-metiltriptamin (dipterin) $C_{11}H_{14}N$ aralashmaning va girgensonin $C_{13}H_{16}N_2O$ mavjud [4]. Bu alkaloidlar juda qimmatli va farmakologik jihatdan yuqori baholanadi.



Xulosa. Girgensohnia diptera bunge o'simligi cho'l mintaqasi va qurg'oqchil hududlarda o'suvchi o'simlik bo'lib, uning alkaloid tarkibi yuqori hioblanadi. Alkaloidlar asosan insektitsid sifatida ishlatiladi.

References:

1. Ильин М.М. Род 432. Гиргенсония — Girgensohnia // Флора СССР = Flora URSS : в 30 т. / гл. ред. В. Л. Комаров. — М. ; Л. : Изд-во АН СССР, 1936. —
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Гиргенсония>
3. Notes on the taxonomy of Girgensohnia (Chenopodiaceae / Amaranthaceae) November 2007 [Edinburgh Journal of Botany](https://doi.org/10.1017/S0960428607004751) 64(03):317 – 330 DOI:[10.1017/S0960428607004751](https://doi.org/10.1017/S0960428607004751)
4. Jurashevski and Stepanova, J. Gen. Chem. Russ., 1939, 9, 2203;